YOSHLAR IJODIDA MILLIY VA UMUMINSONIY TUYG‘ULARNING IFODALANISHI *(Mehrinoz Abbosova she’rlari misolida)*

Qo‘qonova Munira
Erkin Vohidov ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada yosh shoirlarning she’rlaridagi milliylik va umuminsoniy tuyg‘ularning ifodalanishi Mehrinoz Abbosova ijodi orqali yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliylik, umuminsoniy tuyg‘ular, lirik qahramon, yangi avlod, novatorlik, obraz*

Abstract. *The article explores the expression of national identity and universal human feelings in the poetry of young poets, focusing on the works of Mehrinoz Abbasova.*

Keywords: *national identity, universal human feelings, lyrical persona, new generation, innovation, poetic image.*

Аннотация. *В статье рассматривается выражение национальной самобытности и общечеловеческих чувств в стихотворениях молодых поэтов на примере творчества Мехриноз Аббосовой.*

Ключевые слова: *национальная самобытность, общечеловеческие чувства, лирический герой, новое поколение, новаторство, художественный образ.*

So‘nggi o‘n yillikda o‘zbek yosh shoirlari she’riyatida milliy o‘zlik, tarixiy xotira, Vatan, ona tili va ma’naviy merosga munosabat masalalari bilan birga shaxs erkinligi, uning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy ziddiyatlar va insonning zamonaviy dunyodagi mavqeyi hamda o‘rni kabi mavzular ham turli badiiy shakllarda tasvir etilmoqda. Tabiiyki, bu jarayon yosh shoirlar tafakkurida ham akslanib, XXI asrning dastlabki choragi adabiyotiga sezilarli ta’sir etmoqda. “Istiqlol davri o‘zbek she’riyati bu - … asrlar davomida tinimsiz o‘zgarib-yangilanib kelayotgan o‘lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo‘lib, o‘zida juda katta va ko‘pdan ko‘p tajribalarni jamlagan g‘oyat murakkab va bebaho adabiyotimizning bir bo‘lagidir”. [1] Ularning ijodini o‘rganish faqat yangi mavzu va qarashlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki

[1] Ulug‘bek Hamdam. Yangi o‘zbek she’riyati. -T.: Adib, 2012.-B.302

azaliy-an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy badiiy talqini, lirik qahramon ruhiyatidagi evrilishlar, o'zgarishlarni tadqiq etish ham yangi ifoda usullarining mazmun bilan bog'liqligini aniqlab borishni talab qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniy o'zlikni saqlash, o'ziga xoslikni ko'rsatish asnosida boshqa xalqlar tajribasi va umuminsoniy qadriyatlarga ochiq bo'lish masalasi ham ahamiyatlidir. Yosh shoirlar esa yuqoridagi ikki yo'nalish tutashgan nuqtada ijod qilmoqdalar: bir tomonan o'z xalqining tili, tarixi, urf-odat va an'analari, madaniyatidan oziqlansa, ikkinchi tomondan butun dunyoni tashvishga solayotgan global muammolarni, zamonaviy insoniyatni o'ylantirayotgan masalalarni badiiy idrok etadi.

Milliylik badiiy adabiyotda muayyan xalq yoki elatning tili, tarixiy tajribasi, madaniyati, an'analari va ma'naviy qadriyatlari, dunyoqarashi bilan aloqador xususiyatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ammo aytish joizki, milliylikni faqat milliy liboslar (atlas, adras, chopon, do'ppi, mahsi va hokazo), urf-odat hamda marosimlar yoki mahalliy turmush manzaralarini tasvirlash deb tushunmaslik kerak. Milliylik, avvalo, insonning ongida, olamni qay tarzda idrok etishida, o'zini jamiyatda, madaniy va ijtimoiy muhitda qanday anglashida ifodalanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da milliylikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy sinflardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma'naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmuyi". [2] Demak, yillar, asrlar davomida bir millatning ong-u tafakkuriga, yashash tarziga aylanib ketgan bunday xususiyatlar badiiy asarlarda ham aks etishi tabiiy. Ayniqsa, bugungi davr bilan hamnafas yashayotgan va shu millatning adabiyotini ko'rsatishni niyat qilgan yosh shoirlar ijodida milliylik qay tarzda o'rin olgan?

She'riyatda milliy ruhning namoyon bo'lishi bir qancha omillarga bog'liq. Xususan, milliy tilning imkoniyatlari, xalqning asrlar osha yashab kelayotgan iboralari, maqollari, matallari, naqllari, faqat shu millatga mansub bo'lgan til birliklari asar mazmunini shakllantiradi. Shu bilan birga tarixiy xotira va jadodlarimizga hurmat hissining bugungi avlodlar dunyoqarashiga ta'siri hamda uning she'riyatda qay shaklda ifodalanishi ham muhimdir. Milliy qadriyatlar esa badiiy obrazlar, timsol va ramzlar, ba'zan ma'lum bir syujet asosida ochib berilishi mumkin. Misol uchun, ota-onaning roziligi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari, mehmondo'stlik, oilaviy sadoqat va birdamlik kabi tushunchalar asrlar davomida o'zbek xalqining qon-qoniga singigan muhim xislatlar sanaladi.

Mehrinoz Abbosova 18 yoshda yozgan "Odam bo'lish istagi" she'ri 9 misradan iborat, ammo ko'lami bir romanga mavzu bo'ladi:

Samolar yuksakdir, ruhimdek yuksak,

[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-tom.-T.: G'afur G'ulom, 2023.- B.195

Havolar tozami? Yutinaverdim.
Balki daraxt bo‘lar mana shu kaltak,
Meni odam qil, deb o‘tinaverdim…

Yillarning savoli qo‘sha-qo‘shadir,
Hech biriga javob bermay turibman.
Haliyam istagim o‘sha-o‘shadir,
Haliyam... o‘shani so‘rab yuribman.
Odam bo‘lmadim-a haliyam...[3]

Zamonaviy adabiyotda inson erkinligi, qadr-qimmati, o‘zligi masalalari alohida ahamiyatlidir. Chunki inson, avvalo, o‘zini tushunishi, anglashi, mustaqil fikri, o‘z hayotiga doir qarorlarni qabul qilishi, jamiyat bilan munosabatlarini nazorat etish jarayoni badiiy tafakkurning muhim ob’ektlaridan biri sanaladi. Hali dunyoni to‘liq anglab yetmagan, katta hayotga ilk va xavotir bilan qadam tashlashni boshlagan yosh yurakdan chiqqan so‘zlarning soxtaligiga ishonish qiyin. Tabiiyki, shoiraning o‘ziga bergan savoli hali-hamon dolzarb. Chunki bu davrda yoshlarda ruh ozod, yuksak bo‘ladi va ko‘zlagan maqsadlari ham cho‘qqidir. “Havolar tozami?” so‘rog‘idagi ramziylik she’rning qimmatini oshirgan. Sababi hali oq-qorani, yaxshi-yomonni bilmaydigan kishi uchun xatolar qilish, qoqilish xosdir. Shoir esa tengdoshlaridan farqli ravishda “odam” bo‘lish istagida yonadi. Bu savol unga anchadan beri tinchlik bermay kelgani keyingi bandda oydinlashadi. Yillar o‘tdi, lekin savol hamon o‘sha: “odam bo‘ldimmi?” Lirik qahramon esa savoliga javob izlamoqda. Ammo hayot unga hali javobini aytmagan. Shu o‘rinda ushbu she’rning hajmi ham diqqatimizni tortadi. Odatda, juft sonlar bilan tugaydigan she’rlardan farqli ravishda, bu she’r 9 misradan iborat. Nega aynan 9 misra. Yuqoridagi 8 misrada lirik qahramon bir savol ketidan izlanadi. Va oxir- oqibat 9-misraga kelib uning javobini o‘zi topadi: “Odam bo‘lmadim-a haliyam...” Ko‘p nuqtalar bilan yozilgan ushbu misradan va xulosadan aniqlash mumkinki, bu yerda chuqur iztirob va qiynoq yashiringan. Bir ishga urinsang-u, natijasi sen o‘ylagandek chiqmasa, odamda qanday tuyg‘u yoki hissiyot yuzaga keladi? Xuddi shunday kayfiyat lirik qahramonni ham chulg‘ab oladi. Ammo hayot davom etyapti, demak, hali umid bor. Shu yoshda o‘z oldiga qo‘ygan yuksak missiya ijodkorni yanada shiddat bilan qalam tebratishga turtki bo‘ladi. Yoki Mehrinoz 17 yoshda yozgan “Savol” she’rida “Lek otamning baland orzularini Pastlatishga haqqim, haqqim yo‘q mening”, - degan shahdni oldiga qo‘yadi. Shoira 17 yillik umrini uyquda g‘aflatda yotganga qiyoslab, ota-onasi undan ko‘p narsa kutayotganiga ishora qiladi. Albatta, har bir ota-ona farzandi haqqida ko‘p narsalarni, orzu-maqsadlarni xohlaydi. Umrining davomchilarini o‘zidan ko‘ra aqlliroq,

[3] Mehrinoz Abbosova. Yulduzrang qo‘shiqlar.-T.: Sharq. - B.12

ilmliroq, yaxshiroq va baxtliroq ko‘rishni istaydi. Taassufki, hamma farzand ham bu orzularning ketidan quvmaydi, shunchaki vaqtini behuda o‘tkazadi. Yosh shoira esa “Onamning tim qora sochlarini men Qanday huquqim bor oqartirishga?” degan xulosaga keladi. Yuqorida aytganimizdek, ota ham, ona ham bolasining orqasidan faqat yaxshiliklar ko‘rishni, maqtovlar eshitishni istaydi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi bu munosabat milliy oilaviy an’analar asosida tasvirlanadi. Ammo bu yerdagi lirik qahramon va u murojaat qilgan obrazlar (ota va ona)ning bir-birini tushunishga intilishi, avlodlar o‘rtasidagi mas’uliyat va mehr masalalari kengroq insoniy mazmun kasb etadi. She’rdagi ota va ona obrazini umumlashtiradigan bo‘lsak, yaxlit vatan surati ko‘z oldimizda gavdalanadi. Tabiiyki, vatan ham bugun barcha sharoitlarni yaratib berayotgan yosh avlodlaridan yuksak natijalarni kutishga haqli. Har kimning iste’dodi esa turlicha. Kimdir sportda, kimdir san’atda, kimdir ilmda, kimdir esa adabiyotda shu vatanning nomini ulug‘lashi mumkin. Uyg‘onishni istagan yosh shoira esa adabiyotga kirib kelganini va endi adabiyotga qanday xizmat qilishi lozimligi haqida o‘zini so‘roqqa tutadi:

Behuda bo‘lmasa har bitta nafas,
Borligim bildirib tursam hayotga.
Nima berdim mendan mayda gaplarmas,
Katta DARDlar kutgan Adabiyotga? [4]

Chindan ham bugun shoira ayni ijodiy kamolotga yetdi, o‘zi orzu qilgandek o‘zbek adabiyotiga “KATTA DARD” berish tashvishida yuribdi. Katta dard nima ekan? Adabiyotga qanday “dard” berish mumkin? Shu o‘rinda badiiy adabiyotning vazifasini yodga olamiz. “Adabiyot-har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydurg‘on bir guldir”,-deb yozgan edi Cho‘lpon 1914-yilda e’lon qilingan “Adabiyot nadur?” degan maqolasida. O‘quvchi badiiy adabiyotdan ibrat olishga arziydigan qahramonlarni, dunyoqarashiga ozuqa beradigan yangiliklarni, kuchiga kuch qo‘shadigan g‘oyalarni, estetik didini o‘stiradigan va ruhiy-ma’naviy quvvat beradigan tuyg‘ularni qidiradi. Shunday talablarga javob beradigan asarlar esa o‘quvchining mehr-muhabbatiga sazovor bo‘ladi, ham abadiylikka muhrlanadi. “Bugungi o‘zbek she’riyati o‘z vazifasi jihatidan ham, shakl-u shamoyili va mazmuni bilan ham jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Ko‘z o‘ngimizda yuz ochayotgan bu nafis olam-bizning o‘zligimiz, xalqimizning milliy ongi, madaniyati, ma’naviyati, qadriyati, mafkurasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Endilikda biron bir she’riy asarga baho berilar ekan, faqat davr talabigina mezon qilib olinmayotir, balki uzoq yillik lirik tajribalar tarixi ham, mazmun yo‘nalishi ham nazarda tutilyapti. Zero, zamon voqeligidan xoli she’r

[4] Mehrinoz Abbosova. Yulduzrang qo‘shiqlar.-T.: Sharq. - B.23

bo‘lmagani kabi qadimgi an’analardan ajralib qolgan she’r ham yo‘qdir”.[5] Yosh shoira Mehrinoz esa qalamga olgan “katta dard” ana shu talablarga javob bergan asarlarni yozishni niyat qilgan, uni o‘qigan har bir she’rxonning yuragida esa vulqon otilishi shart. Zero, badiiy adabiyotning bosh vazifasi insonni o‘zligini anglashga yordam berishdir. O‘zlikni anglash, avvalo, katta dardning qalbga kirishi bilan boshlanadi. Keyin esa bu dardning yuki uni uyg‘onishga, ongni eng pokiza tuyg‘ular bilan oziqlantirishga kirishadi. Erkinlik ruhini inson qalbida tarbiyalar ekan, jamiyatni ham, insoniyatni ham ozod ko‘rishni maqsad qiladi. Ruhi uyg‘oqlar bor joyda erkinlik shabadasi hamisha esadi.

[5] Yo‘ldosh Solijonov. Adabiyot xiyoboni.-Farg‘ona.:Farg‘ona, 2020.-B.7-8